
TOSHLOQDA "MA'NAVIYAT FESTIVALI" BO'LIB O'TMOQDA

Dastlab, Toshloq tumanidagi "Nayman" MFYda joylashgan Madaniyat markazida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan "Xalq Konstitusiyasi bilan xalqchil davlat sari" shiori ostida taniqli shoir va yozuvchilar, olimlar, san'atkorlar va "Ma'rifat" targ'ibotchilari jamiyati a'zolari ishtirokida targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda "Ma'rifat" targ'ibotchilaridan Tashkent Irigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari milliy-tadqiqot Universiteti professori, pedagogika fanlari doktori Zuhra Ismoilova, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat Instituti dosenti, pedagogika fanlari nomzodi Musallam Abdujabborova hamda Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri aktyori Rasuljon Qodirxonovlar ishtirok etdi.

Tadbirda so'z olganlar joriy yil 30 aprel kuni respublikamizda bo'lib o'tadigan umumxalq referendumida barchani o'zlarining fuqarolik pozisiyasini namoyon etgan holda faol ishtirok etishga chaqirdilar. Shundan so'ng, yosh san'atkorlar ijrosida konsert dasturi namoyish etildi.

2023-04-01 14:54:56